“BOBURNOMA” ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA

G.R.Ishankulova

NavDKTU “O‘zbek va chet tillar” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Shoir o‘z xotiralarini badiiy naql uslubida sodda va ravon bayon etadi. Unda 1494 yildan 1530 yilgacha O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. “Boburnoma” qo‘lyozmalarining chiroyli rasmlar bilan bezatilishi ham tarjimaning shuhrat qozonishiga sabab bo‘lgan. “Boburnoma”ning forsiy nusxalariga ishlangan miniatyuralar Sharq rassomlik san’atining ajoyib namunalari hisoblanadi. Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug‘ bunyodkorlik an’analarini davom ettirdi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma, shoh, bunyodkorlik, urf-odati, asari, joy nomlar, fazilatlari, atamalar, madaniyat, etnograf, tabiatshunos, tilshunos.

Annotation: The Poet narrates his memoirs simply and fluently in the style of artistic narration. It chronicles the events of Central Asia, Afghanistan and India from 1494 to 1530. The beautiful pictorial decoration of the” Boburnoma " manuscripts was also a reason for the translation's fame. Miniatures made into Persian copies of the”Boburnoma " are excellent examples of Oriental Art. The Great King Babur continued the great tradition of building in India typical of the temurians.

Keywords: "grandfather, King, creativity, tradition, work, place names, virtues, terms, culture, ethnographer, naturalist, linguist

Аннотация: поэт просто и красноречиво излагает свои воспоминания в стиле художественной басни. В нем рассказывается о событиях, которые произошли в Средней Азии, Афганистане и Индии с 1494 по 1530 год. Украшение рукописей” бабурномы " красивыми иллюстрациями также способствовало популярности перевода. Миниатюры, выполненные на персидских копиях”бабурномы", считаются прекрасными образцами восточной живописи. Великий шах Бабур продолжил в Индии традиции великого творчества, свойственные тимуридам.

Ключевые слова: "Бабурнома, царь, творчество, традиция, творчество, место названия, качества, термины, культура, этнограф, естествоиспытатель, лингвист.

Kirish

Z.M.Boburning tarixiy faktlarni shunchaki qayd etish, jangu jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qiladi, tabiatni, etnografik xolatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi. “Boburnoma”da o‘nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi, tabiat manzaralarining suratini chizadi, kitobni har xil

ISSN 3030-3907

syujetlar, ishqiy sarguzashtlar, she’riy parchalar bilan bezaydi. Tilga olingan shaxslarning shaxsiyati, tashqi ko‘rinishini, fe’l atvorini, odatlari, o‘tmishi, avlod-ajdodini birma bir ta’rif etiladi.

Asardagi markaziy obraz Boburning o‘zi, albatta. Uning his tuyg‘ulariga boy qalbi ko‘z oldimizda yorqin jonlanadi. O‘z zamondoshlari biografiyasini, ularning qiyofalari, urf-odati, intilishlari, qiziqish va qiliqlarini ko‘zguda aks etgandek ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan “Boburnoma” O‘rta Osiyodagi yagona chinakam tarixiy tasvir namunasidir” deb yozadi. Bobur O‘rta Osiyo, Xuroson va Hindiston geografiyasi, hayvonot hamda nabotot olami to‘g‘risida boy ma’lumot bergan. Xususan, “Boburnoma”da hindlarning etnografiyasi, ilmu fani, san’at va madaniyati haqida qimmatli faktlar bor. Davrning juda ko‘p xususiyatlarini qamrab olishi, qomusiy xarakteri va o‘zbek adabiy tilining beqiyos boy imkoniyatlarini namoyish etishi bilan “Boburnoma” Alisher Navoiyning “Xamsa”siga qiyos qilgudek madaniy obida hisoblanadi. Asarning tez orada shuhrat qozonib, XVI asrning o‘zidayoq bir necha marta fors tiliga tarjima etilishi ham fikrimizning isbotidir.

“Boburnoma” fors tiliga birinchi marta 1589 yili shoirning nevarasi Akbarshoh saroyida xizmatda bo‘lgan Abduraximxon ibn Bayramxon tomonidan tarjima qilingan. Tarjima ko‘p nusxada ko‘chirilib, “Voqeoti Boburiy”, “Tarixi Bobursohiy” nomlari ostida Sharq mamlakatlarida keng yoyildi. Abdurahimxon tarjimada Boburning o‘ziga xos bayon tarzini bera olgan, asar fors adabiyoti va tarixchiligida ulkan yangilik sifatida qabul qilingan. Qamrab olingan tarixiy voqealarning ro‘yi-rost ko‘rsatilishi, ilmiy faktlarga boyligi bilangina emas, balki ravon uslubi, sodda va jozibadorligi bilan ham Bobur asari o‘zidan keyin yaratilgan tarixiy memuarlarga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Sharqning ilg‘or ziyolilari turkiy tilda (eski o‘zbek tilida) yaratilgan adabiyotning katta nufuzga ega. ekanligini ko‘rib ilm ahlini bu tilni o‘rganishga da’vat eta boshlaydilar. Navoiy va Boburning ajoyib asarlarini tarjima qilib, forsiy zabonlarni bahramand etishni muhim vazifa deb biladilar.

“Boburnoma” qo‘lyozmalarining chiroyli rasmlar bilan bezatilishi ham tarjimaning shuhrat qozonishiga sabab bo‘lgan. Akbarshoh saroyida 104 nafar rassom doimiy ish olib borgan. Tarjimon Abdurahimxonning o‘zi ham rasm chizish bilan shug‘ullangan. Akbar saroyida o‘nlab kitoblarga rasmlar chizilgan. “Boburnoma”ning forsiy nusxalariga ishlangan miniatyuralar Sharq rassomlik san’atining ajoyib namunalari hisoblanadi.

XIX asr boshlariga kelib, “Boburnoma” butun Yevropa ilm ahliga ma’lum bo‘lgan. Bobur merosining jahoniy shuhratida, ayniqsa, ingliz sharqshunoslarining xizmati kattadir. Ular “Boburnoma”ni tarjima qilish va nashr etishdagina emas,

ISSN 3030-3907

balki tadqiq va targ‘ib etish borasida ham birinchilikni egallaydilar. Tarjimonlar tarjimaga asarning o‘zbekcha va forscha nusxalarini asos qilib oldilar. U.Erskin kitobga kattagina muqaddima yozgan, unda Bobur va uning asarlarini ingliz kitobxonlariga tanishtiradi: “Biz Osiyodagi hukmdorlar ichida Bobur singari genial va talantli kishilarni kamdan kam uchratamiz. Aqlining ravon faoliyati, xushchaqchaq va sovuqqonligi, bevafo taqdirning nayranglariga qaramay, ruhining tetikligi, podsholar orasida juda kam uchraydigan sahiyligi, mardligi, iste’dodliligi, fanga, san’atga muhabbat va ular bilan faol shug‘ullanishi jihatdan Osiyo podsholari orasida Boburga teng keladigani yo‘q”. 1921 yilda Oksford universiteti nashriyoti tomonidan ko‘p jildli qilib, ikkinchi marta chop etildi. Bu nashrda Dublin unversitetining professori L.Kivt so‘zboshi yozib, “Boburnoma” nashrlari, uning jahon qo‘lyozma fondlaridagi nusxalari, tarjimalari haqida ma’lumot beradi, inglizcha variantni qayta tahrirdan chiqaradi.

Birinchi jildning yarmini tashkil etadigan ilmiy ocherkida u Movarounnahr va Xuroson tarixi, geografiyasi, Bobur tilga olgan Samarqand, Andijon, O‘ratepa, Kobul va boshqa shaharlarning hozirgi ahvolini keng yoritgan. Mazkur nashrning yana bir fazilati shundaki, tarjimaning ilmiy aniqligini ta’minlash uchun xoshiyalarda ko‘p miqdorda izoh va sharhlar berilgan, kitobdagi she’rlarning kimga taalluqli ekanligi va qaysi tilda yozilgani ham ko‘rsatilgan.

Shuningdek, Bobur asarlarining Turkiyada tarqalishiga atoqli olim Rashid Rahmat Oratning xizmati katta. Ingliz tilida Bobur hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan bir talay maxsus monografiyalar ham yaratilgan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan bir qator so‘zlarning ma’nolari eski o’zbek tili davridagi ma’nolaridan farq qiladi. Masalan, Ko‘por - “turg‘iz”, “tikla”, “olib tashla”, “qo‘zg‘amoq”. Mazkur so‘zning asosi bo‘lgan qo‘p - qadimgi turkiy tidda “ko‘tarilmoq”, “uchmoq” ma’nolarida qo‘llangan. Asarda qo‘llangan qishloq termini hozirdagidan farqli o‘laroq, asl lug‘aviy ma’nosida kelgan, ya’ni “qishlaydigan uy, makon” tushunchasini anglatgan: Bir qo‘rg‘onda qishloq solmoq kerak... Necha kun qishloqi uylar tayer bo‘lg‘uncha o‘langda o‘lturuldi. Qadimgi turkiy tilda: Qishlag‘ - “qishlanadigan joy” tushunchasini anglatgan. Qishloq qish otita - la qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan qishla fe’-liga g‘ qo‘shimchasini qo‘shishdan hosil bo‘lgan; “aholisi yezda dalalarga ketib, qishda qaytib “kelib yashaydigan joy” ma’nosini anglatgan. Hozirda aholisi, asosan, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadigan yashash joyini bildiradi. Qishloq so‘zining “qishlaydigan uy” ma’nosida qo‘llanishi terminning eski o‘zbek adabiy tili davridagi narsa-ob’ekt nomidan ma’muriy-hududiy terminga aylanish jarayoni haqida tasavvur beradi.

ISSN 3030-3907

“Boburnoma” tilidagi bir qator so‘zlar arxaizmga aylangan. Bunday so‘zlar tabiatini quyidagi misollar asosida izohlash mumkin: ilik arxaik so‘z bo‘lib, “qo‘l” ma’nosini bildirgan. Ilikdan yasalgan ilikla fe’li “egallamoq”ma’nosida kelgan. Beklar, yigitlar bila ilg‘or tayin qildukkim, borib Yor yayloq qo‘rg‘onlarini so‘z bila yo zo‘r bila iliklagayla... Charga, jarga - “doira”, “halqa”, “o‘rov” “chargalamoq”, “aylanmoq”. Alishanglik charga qilib, tog‘din kiyikni indurdilar. Ko‘chma ma’noda ham qo‘llangan. O‘shal taqsir qilganni mucha chargasidin uzatib, viloyat va parganasidin yiratqaybiz. Mucha – “amal, mansab” bo‘lib, mucha chargasi – “amal doirasi” tushunchasini ifoda etadi.

Sharq xalqlari tarixi bilan shug‘ullangan yana boshqa ingliz va amerikalik olimlar Boburning shaxsiy qobiliyati va faoliyatiga yuqori baho berib o‘tganlar. Zamondoshimiz atoqli sharqshunos olim J.L. Bonte Grammon “Boburnoma” ning fransuz tilidagi yangi tarjimasini yaratdi. U bir necha bor yurtimizga kelib, o‘zbek xalqining turmush tarzi, tarixi bilan yaqindan tanishdi. 1912 yilda Tog‘ay Murod Qorluq Xatloniy uni yana bir marta fors tiliga tarjima qildi. Bu tarjima qo‘lyozmasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

1944-1946 yillarda esa asar usmonli turk tiliga tarjima qilinib, Anqarada ikki jildda bosilgan. Rossiyada “Boburnoma” ancha ilgari paydo bo‘lgan edi. XIX asr oxirlarida “Boburnoma”dan ayrim qismlar I.Pantusov, S.Polyakov, V.Vyatkin tarjimasida rus kitobxonlariga qisman taqdim etilgan bo‘lsada, yaxlit ruscha tarjimasi amalga oshirilmagan edi. Bu sharafli va xayrli ish mohir tarjimon va olim M.Sale tomonidan bajarildi va asar 1958 yili Toshkentda bosmadan chiqarildi. M.Sale tarjima ustida o‘n yildan ko‘proq vaqt mehnat qildi, asar tilini chuqur o‘rgandi. Behad ko‘p atamalar, ibora va nomlar transkripsiyasini berish, shuningdek, Bobur qalamining “mardona uslubini” saqlashga muvaffaq bo‘ldi. Shunga qaramay, M.Sale tarjimasida xamon talay noaniqliklar mavjud. “Boburnoma” dagi bir qancha nomlar noto‘g‘ri berilgan. Chunonchi, Ahmad Mirzo sevgilisi Qutluqbegim **“Katak begim”** bo‘lib ketgan, **“buqalamun”, “mucha”** kabi ba’zi so‘z va iboralar tarjimasiz va izoxsiz keltirilgani sababli rus kitobxoniga tushunarsiz bo‘lib qolgan. Tarjima va nashrlardagi nuqsonlarning aksariyati asarning ilmiy tanqidiy matniga ehtiyoj borligidan kelib chiqqan.

Shunga o‘xshash talay noaniqliklarni bartaraf etish uchun “Boburnoma”ning eng e’tiborli qo‘lyozma nusxalarini chog‘ishtirib, uning ilmiy matnini tayyorlash zarur edi. Nihoyat, bu ishni yaponiyalik bobur shunos olimlar amalga oshirdilar. Asarning tanqidiy matni yaratilib, nashr etildi.

Ko‘rinib turinibdiki, Mirzo Boburning hayoti va ijodi turli mamlakatlarda o‘rganilmoqda va xalqaro ilmiy hamkorlik vositasiga aylanib bormoqda. Bu ham

ISSN 3030-3907

o‘zbek xalqining ulug‘ iste’dodi, iftihoridan nishonadir. Har bir xalqning tarixiy, madaniy milliy qiyofasini aniq belgilovchi ulug‘ shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo‘ladi. Insoniyatning adabiyotga mansub ana shunday buyuk farzandlari safida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z o‘rniga ega. Kishilik tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlari beqiyos kishilar juda kam uchraydi. Bobur buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san’atshunos, etnograf hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘pqirrali faoliyat va ijod sohibi bo‘lganligidan xabar beradi.

Muhammad Bobur mard va tadbirkor odam bo‘lgan. Bobur o‘ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mansabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi… Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari tarixiy adabiy manba sifatida shunisi bilan e’tiborliki, asarda ko‘plab tarixiy shaxslar, joy nomlari, adabiyot va san’at ahllari, din peshvolari, shox va shaxzodalar, beklar, amiru umarolar haqida ma’lumotlar uchraydi. “Boburnoma” da bir necha yuz tarixiy shaxslar, ularning faoliyati va sarguzashtlari tasvir etiladi.

“Boburnoma”da ilm-fan, san’at va adabiyot ahllariga katta o‘rin berilgan. Bobur Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Xusayn, Muammoniy, Shayxim Suhayliy, Yusuf Badavniy, Ahmad Xojibek, Behzod, Sulton Ali, Hoji Abdulla Marvoriy, Shoh Muzaffar, G‘ulom Shodiy, Husayn Udiy kabi bir qator shoirlar va san’atkorlar haqida ma’lumot beradi, ularni maqtaydi, asarlaridan namunalar keltiradi, ba’zan hayoti, faoliyati yoki shaxsiy sifatlari haqida qiziqarli fikrlar so‘zlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joyizki,“Boburnoma” bu kishilarning hayoti va faoliyatini o‘rganishda ularning madaniy hayotidagi o‘rnini belgilashda juda ahamiyatlidir. Natijada biz Bobur zamonida yashagan va tariximiz, ma’naviyatimizda muhim voqeaga ega bo‘lgan davlat va madaniyat arboblari bilan ham tanishamiz. Asarda har bir yil voqealari alohida beriladi. Bu kabi qimmatli ma’lumotlar va keltirilgan mulohazalarning hammasi tarix uchun muhimdir. Demak bundan ko‘rinib turibdiki, “Boburnoma” XV asr oxiri – XVI asrning birinchi choragida mazkur uch mintaqada kechgan voqealarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Asar yuzasidan tadqiqot olib borgan M. Abdullaevaning ma’lumotiga ko‘ra “Boburnoma” da hammasi bo‘lib 1540 nafar kishi nomlari tilga olingan bo‘lib, shundan 357 nafari Movarounnahrlik tarixiy shaxslarning nomlaridir. Qolgan qismi esa turli davrda, turli mamlakatlarda yashagan tarixiy shaxslar nomidir. Asarda biror tarixiy voqea bayonidan oldin yoki bayon jarayonida chekinilib shu voqea yuz berayotgan joy tasvirlanadi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azimjonova S. Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii. - Moskva, 1977.
2. O‘zbek adabiyoti tarixi.–Toshkent, 1978 y.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent, 1960. Mashrabov Z.,
4. Shokarimov S., Asrlarni bo‘ylagan Bobur, Toshkent, 1997.
5. Vohidov R., Biz bilgan va bilmagan Bobur, Toshkent, 2000.
6. Z.Xolmanova “Boburnoma” dagi ayrim so‘zlarning tarixiy-etimologik tahlili.

ISSN 3030-3907